



**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**“TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA  
RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA  
ULARNING YECHIMLARI”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY ANJUMANI**

2026-yil 7-may  
Urganch shahri

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI  
VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLASHTIRISH: ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI»  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN**

**«ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБРАЗОВАНИИ:  
СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ»  
РЕСПУБЛИКА НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ**

Urganch - 2026

## MUNDARIJA

<b>1-SHO‘BA MAKTABGACHA TA‘LIMDA SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.</b>	
Abdullayev Diyorjon Nodirjon o‘g‘li <b>PEDAGOGIKA FANLARINI O‘QITISHDA STEAM TA‘LIMNING O‘RNI</b>	12
Xo‘jamuratov Umarjon Rustamovich – <b>RAQAMLI TA‘LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI</b>	17
Sa‘dullayev Ziyoddin Yovqochovich <b>OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING PEDAGOGIKA TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA INTERFAOL DARSLARDA TALABALARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING O‘RNI</b>	19
Xajiyeva Maqsuda Sultanovna <b>AQLLI TA‘LIM: SUN‘IY INTELLEKT ORQALI BILIM BERISHNING YANGI BOSQICHI</b>	26
Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li <b>RAQAMLASHTIRILGAN TA‘LIM MUHITIDA SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA PEDAGOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISH STRATEGIYALARI</b>	29
Raximov G‘ayrat Buvaxanovich <b>RAQAMLI TA‘LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI</b>	32
Xajiyeva Dilfuza Adambayevna <b>IJTIMOY MAS‘ULIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING PEDAGOGIK AHAMIYATI</b>	35
Atadjonova Dinora Ulug‘bekovna <b>TA‘LIM JARAYONIDA O‘ZLASHTIRISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK MOHIYATI VA STRUKTURAVIY TAHLILI</b>	37
Karimova Shirinoy G‘ayrat qizi <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA JISMONIY VA AXLOQIY TARBIYALASHNING ZARURATI</b>	40
<i>Sabirova Charosxon Atamamatovna</i> <b>MA‘NAVIY-AXLOQIY TAFAKKURNI SANOGEN TARBIYALASHNING MILLIY VA UMUMINSONIY METODOLOGIK MANBALARI</b>	45
SH.K.ISMAILOVA <b>RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH</b>	51
M.S.Salayeva <b>MAKTABGACHA TA‘LIMDA SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH DAVR TALABI</b>	54
Saporboyev Mirzabek, Jumaniyazov Javoxir <b>RAQAMLI TA‘LIM MUHITIDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUV JARAYONINI MONITORING VA BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	59
Nuraddinova Raviyajan Sultanbayevna <b>MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA MASHG‘ULOTLARNI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH USULLARI</b>	65

Yunusxo'jayev M.Z. <b>NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" SHAXSINI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b>	489
Mustafo Yunusxo'jayev Zafarxo'ja o'g'li <b>NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDAGI AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISH G'OYALARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI</b>	493
Allaberganova Marifat Kuranbayevna <b>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IMLOVIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISHDA IJODIY YOZMA ISHLAR (HIKOYA, SHE'R, ERTAK)NING O'RNI VA METODIKASI</b>	497
Xasanov Bobur Raximberganovich <b>O'SMIRLARDAGI KOGNITIV SOHANING KASB TANLASH JARAYONLARIGA TA'SIRI</b>	501
Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna <b>OLIY TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH MASALALARI</b>	506
Якубова Диана Хайдаровна <b>ЦИФРОВИЗАЦИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ В СТРАНАХ ТЮРКСКОГО МИРА</b>	509
ЯКУБОВА ДИАНА ХАЙДАРОВНА <b>МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН</b>	513
Bobojanov Ilhom Abdulla o'g'li <b>REKREATSION TURIZM ASOSIDA TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIGA YO'NALTIRILGAN KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI</b>	517
Usmanova Xalima Muzaffarovna <b>INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA OG'ZAKI NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b>	522
Yusupova Shoxida Xusainovna <b>TALABALARNING EMOTSIONAL -INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH.</b>	527
Masharibova Lobar Rayimberganovna <b>RAQAMLI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEDIA SAVODXONLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</b>	530
Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna <b>TALABA QIZLARINING IJTIMOY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARINING O'RNI</b>	533
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li <b>TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.</b>	536
Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li <b>OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOY-PEDAGOGIK ASOSLARI – FRANSIYA UNIVERSITETLARI MISOLIDA</b>	541

**TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI O‘RGANISHNING  
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.**

*Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li-  
Urganch davlat pedagogika instituti “Magistratura  
bo‘limi” boshlig‘i, p.f.b.f.d.(PhD, dotsent.,  
mustaqil izlanuvchi.  
+99 897 792 19 09*

[sh.xudayberganov.urdu@mail.ru](mailto:sh.xudayberganov.urdu@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati g‘oyasi tarixiy-pedagogik va tarixshunoslik tahlillariga, shuningdek, Tanqidiy tahlil va tizimli yondashuv asosida talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy xususiyatlarini (qonun hujjatlari, yetakchi universitetlar, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, umumiy tavsifi, tuzilishi, vazifalari va texnologiyalari) o‘rganishning ketma-ketligi, samaradorligi va mantiqi tahlil qilinadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini isloh qilish, rivojlantirish, akademik erkinlikning kengayishi va yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishi natijasida yuzaga kelgan jarayon talabalarning ilmiy faoliyatida yangi usullar va imkoniyatlarni ochib berishi haqida fikrlar bayon qilinadi.

**Аннотация.** В данной статье идея научно-исследовательской деятельности студентов рассматривается с точки зрения историко-педагогического и историографического анализа. Также, на основе критического анализа и системного подхода, изучаются основные особенности научно-исследовательской деятельности студентов, включая нормативно-правовые акты, опыт ведущих университетов, организацию научной деятельности, её общую характеристику, структуру, задачи и технологии. Анализируется последовательность, эффективность и логика этих процессов. Отдельное внимание уделяется трансформациям, происходящим в результате реформирования и развития научной деятельности, расширения академической свободы и появления новых возможностей, которые открывают перед студентами новые формы и методы научного поиска.

**Annotation.** This article examines the concept of students’ research activities through historical-pedagogical and historiographical analysis. It also explores, through critical analysis and a systematic approach, the key characteristics of students’ research engagement - including legal frameworks, practices at leading universities, the organization of research activities, their general description, structure, functions, and technologies. The study analyzes the sequence, effectiveness, and internal logic of these processes. Particular attention is given to the transformations resulting from reforms and developments in research activities, the expansion of academic freedom, and the emergence of new opportunities, all of which open up novel methods

and avenues for student-led scientific inquiry.

**Kalit soʻzlar:** ilmiy tadqiqot, talaba, akademik erkinlik, imtihon-munozara, madaniyat, yondashuv, tarixiy kelib chiqish.

**Ключевые слова:** научное исследование, студент, академическая свобода, экзамен-дискуссия, культура, подход, исторический фон.

**Key words:** scientific research, student, academic freedom, exam-discussion, culture, approach, historical background.

Har qanday pedagogik nazariyaning rivojlanish tarixi pedagogik hodisalarning butun xilma-xilligini tadqiq etish va tavsiflash imkonini beruvchi maʼlum bir tushunchaviy tizimni izlashga boʻlgan intilish bilan tavsiflanadi.

***Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining mohiyati va tuzilishini quyidagi yondashuvlar asosida tahlil qilish mumkin:***

**1) Tizimli yondashuv.**

Soʻnggi yillarda murakkab pedagogik obyektlarni oʻrganish va oʻzgartirish uchun tizimli yondashuvga asoslangan samarali ilmiy usullar shakllanib, amaliyotda keng qoʻllanila boshlandi.

Tizimli-tanqidiy yondashuv hamda umumiy tizimlar nazariyasi pedagogika, falsafa va oliy taʼlim metodologiyasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ularning asosiy vazifasi universitet sharoitida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashda maqsadlar, qadriyat yoʻnalishlari va vazifalarni aniqlashdan iborat.

Ushbu yoʻnalishlarni oʻrganish orqali Yevropa universitetlarida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashning asosiy tamoyillari, maqsadlari, modellari, shuningdek, bu modellarning real taʼlim holatlari bilan mos kelish darajasi va rivojlanish istiqbollari aniqlanadi.

Oliy taʼlim pedagogikasida tizimli-tanqidiy yondashuvdan foydalanish XX asr oxiridan boshlab keng qoʻllanila boshladi va u pedagogik bilimlar metodologiyasi sifatidagi yangi ilmiy yoʻnalishning yetakchi usuliga aylandi.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi tizimli tadqiqot bosqichlaridan biri tizimning hayotiychanligini belgilovchi xususiyatlar majmuasini aniqlash va ularni tizimli tarzda tavsiflashdan iborat.

Olimlar taʼkidlashlaricha, tizimli hodisalarni tashkiliy, tuzilmaviy, funksional va yaxlit nuqtai nazardan koʻrib chiqish lozim. Bu metodologik yondashuv komponentlarni alohida emas, balki oʻzaro uzviy bogʻliqlikda tahlil qilishni nazarda tutadi. Tizimli-tanqidiy yondashuv orqali pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarning umumiy tizimli sifatleri va xususiyatlari aniqlanadi.

***Tizimli yondashuv asosida talabaning ilmiy-tadqiqot faoliyati quyidagi oʻzaro bogʻliq komponentlar majmui sifatida qaraladi:***

- ilmiy izlanishning maqsadlari;
- ilmiy jarayon subyektlari (o'qituvchi va talaba);
- mazmuni;
- metodlari;
- uslublari va shakllari.

Yu.Surmin ta'kidlashicha, tizimli yondashuvning mohiyati shundaki, har qanday murakkab obyekt mustaqil tizim sifatida, o'zining xususiy ishlash va rivojlanish mexanizmlariga ega bo'lgan shaklda ko'rib chiqiladi.

A.Kuznetsova esa tizimli yondashuvni eng nufuzli bilish dasturlaridan biri deb hisoblaydi. U ko'plab amaliy usullar va boy metodologik izoh tajribasini shakllantirgan.

***A.V.Antonovning fikriga ko'ra, tizimli yondashuv quyidagi imkoniyatlarni beradi:***

- tizim chegaralarini aniqlash;
- komponentlar va ularning o'zaro ta'sirini tavsiflash;
- pedagogik tizimning ishlashi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilash;
- pedagogik jarayonlarni modellashtirish;
- ilmiy tadqiqot natijalarini bashorat qilish;
- kelajakdagi rivojlanish strategiyasi va boshqaruv taktikasini ishlab chiqish.

Tizimli-tanqidiy yondashuv pedagogik ta'lim tizimini o'rganishning yo'nalishi bo'lib, mutaxassisning kasbiy rivojlanish jarayonida yuz beradigan shaxsiy ichki o'zgarishlar tizimi sifatida talqin etiladi.

Shunday qilib, nazariy jihatdan aytganda, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida tizimli yondashuv zamonaviy ilmiy izlanishlarga qo'yiladigan metodologik talablar majmuasini tashkil etadi.

Dunyoning tizimli tarzda qayta tashkil etilayotganini ta'kidlagan holda, N.V.Kuzmina har qanday tizim o'zaro bog'liq komponentlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular yaxlit bir butunlikni tashkil etadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday pedagogik tizim quyidagi beshta asosiy tarkibiy va funksional komponentni o'z ichiga oladi:

- Pedagogik maqsad;
- O'quv mazmuni;
- Ilmiy axborot;
- Talabalarning pedagogik faoliyat vositalari;
- O'qituvchilarning faoliyat vositalari.

***U quyidagicha fikr bildiradi:***

“Bir pedagogik tizimning boshqa bir tizimdan farqi nimada yoki ular o‘rtasidagi o‘xshashlik qanday ekanligini aniqlash uchun mazkur besh tarkibiy komponent asosida qiyosiy tahlil o‘tkazish lozim”.

Shuningdek, tizimli yondashuv doirasida asosiy komponentlar sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi:


a) **O‘quv maqsadlari** - talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash jarayonida belgilanadi;

b) **Ilmiy tajriba mazmuni** - tadqiqot jarayonining asosiy intellektual poydevori;

c) **Ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta‘minlovchi o‘quv-uslubiy materiallar** - talabalarni tadqiqotga yo‘naltirish va ularga uslubiy jihatdan yordam berish vositalari.

Shunday qilib, yuqorida sanab o‘tilgan komponentlar asosida Yevropa universitetlarida kelajak mutaxassislarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash tizimining tuzilishini belgilash mumkin. Bunda, mazkur komponentlar Yevropa ta‘limi doirasida bo‘lg‘usi mutaxassislarning ilmiy-tadqiqot faoliyati texnologiyasi sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Shu munosabat bilan, 1-rasmda taklif qilinayotgan, ishlab chiqilgan talaba-tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati tizimi tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikning tuzilmaviy chizmasi aks ettirilgan.



1-rasm. Talaba-tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyati komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning strukturaviy sxemasi

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining maqsadi:

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi asosiy maqsad - ularni mustaqil ilmiy fikrlashga, izlanishga, ilmiy muammolarni aniqlash va hal qilishga tayyorlash, nazariy

**bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish**, shuningdek, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan **tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish**dan iborat.

**Maqsadning asosiy yo'nalishlari:**

<b>Yo'nalish</b>	<b>Tavsifi</b>
<b>Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish</b>	Talabani ilmiy fikrlashga yo'naltirish, fundamental bilimlar asosida izlanish ko'nikmasini rivojlantirish.
<b>Mustaqil izlanish ko'nikmasi</b>	Muammoni mustaqil aniqlash, tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechim taklif qilish salohiyatini rivojlantirish.
<b>Amaliy qo'llash</b>	O'rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tadqiqotlarda qo'llash, eksperimentlar o'tkazish, natijalar chiqarish.
<b>Kasbiy tayyorgarlik</b>	Bo'lajak mutaxassisni ilmiy asosda qaror qabul qilishga va innovatsion faoliyatga tayyorlash.
<b>Ijodiy fikrlash</b>	Talabaning kreativ, yangilikka intiluvchi tafakkurini rivojlantirish.

Shunday qilib, 1-rasmga ko'ra, talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati haqida tizimli tasavvur quyidagi elementlarni tahlil qilish orqali shakllantiriladi:

- maqsadlar;
- ijodiy faol talabalarni saralash mexanizmi;
- ko'p darajali tuzilma;
- tashkilot shakllari, usullar, vositalar va tadqiqot texnologiyalari majmuasi;
- ilmiy jarayonni tashkil etish xususiyatlari;
- talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'ziga xos jihatlari.

Aynan elementlarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini integrativ tahlil qilish orqali talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini murakkab pedagogik tizim sifatida chuqur o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Yevropa mamlakatlarida talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini o'rganishning metodologik asosini tizimli, sivilizatsion, tarixiy va qiyosiy yondashuvlar tashkil etadi. Bu yondashuvlar orqali talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati tarixiy asoslari, bugungi holati hamda rivojlanish yo'nalishlari aniqlanadi.

Tanqidiy tahlil va tizimli yondashuv asosida talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy xususiyatlarini (qonun hujjatlari, yetakchi universitetlar, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, umumiy tavsifi, tuzilishi, vazifalari va texnologiyalari) o'rganishning ketma-ketligi, samaradorligi va mantiqi belgilangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Е.Е.Адакин, Теория и методика развития творческого потенциала студентов вуза / Е.Е. Адакин: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Кемерово, 2006. – 46 с.
2. Е.И.Бражник, Интеграционные процессы в современном европейском образовании / Е.И. Бражник. – СПб.: Рос. гос. пед. ун-т им. А.И. Герцена, 2001. – 200 с.
3. Н.Г.Вайнер, Становление и развитие цивилизационного подхода в истории отечественной педагогики XX века : дис. ...канд. пед. наук : 13.00.01 / Вайнер Николай Геннадьевич. – Владимир, 2008. – 209 с.
4. Khudayberganov Sh.Sh. Global Education and National Pedagogy (Ethnopedagogical Experiences of Developed Asian Countries (With the Example of Academic Freedom)) // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching (EJLAT) May 2023., P-28-33. Impact Factor:8.22
5. Xudayberganov Sh.Sh. Akademik erkinlik g'oyasining ijtimoiy-pedagogik asoslari. // "Zamonaviy tarbiyada xalq pedagogikasining o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi-2022. B-86-87.
6. Xudayberganov Sh.Sh. Talaba-yoshlar ongiga akademik erkinlik g'oyasini singdirish–Fransiya universitetlari qanday rivojlanmoqda. // International and national values along great silk road: language, education and culture xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Samarqand-Shanxai, 2022. B-310-312.

### **OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK ERKINLIK SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY TADQIQOT FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ASOSLARI – FRANSIYA UNIVERSITETLARI MISOLIDA.**

*Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li-*

*Urganch davlat pedagogika instituti "Magistratura*

*bo'limi" boshlig'i, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent.,*

*mustaqil tadqiqotchi.*

*+99 897 792 19 09*

*[sh.xudayberganov.urdu@mail.ru](mailto:sh.xudayberganov.urdu@mail.ru)*